



INTENSIFICATION OF GEOLOGICAL EXPLORATION WORK AND THE DISCOVERY OF NEW DEPOSITS IN UZBEKISTAN (1946-1960)

Matluba Radjapova

Master's student

Oriental University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, geological exploration, mineral deposits, industry, non-ferrous and rare metals, gold, copper natural resources, scientific research, geology.

Abstract: This article is devoted to the study of the history of the intensification of geological exploration work carried out in Uzbekistan between 1946 and 1960 and the new mineral deposits discovered as a result.

Received: 20.05.25

Accepted: 22.05.25

Published: 24.05.25

O'ZBEKISTONDA GEOLOGIYA-QIDIRUV ISHLARINING JADALLASHTIRILISHI VA YANGI KONLARINING OCHILISHI (1946-1960 -YILLAR)

Matluba Radjapova

Magistratura talabasi

Oriental universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'zbekiston, geologik qidiruv, foydali qazilma konlari, sanoat, rangli va nodir metallar, oltin, mis tabiiy boyliklar, ilmiy tadqiqot, geologiya sohasi.

Annotatsiya: Mazkur maqola 1946-1960-yillar oralig'ida O'zbekiston hududida olib borilgan geologik qidiruv ishlarining faollashuvi va ularning natijasida ochilgan yangi foydali qazilmalar konlarini tarixni o'rganishga bag'ishlangan.

ИНТЕНСИФИКАЦИЯ ГЕОЛОГОРАЗВЕДОЧНЫХ РАБОТ И ОТКРЫТИЕ НОВЫХ МЕСТОРОЖДЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ (1946-1960)

Матлюба Раджапова

студент магистратуры

Oriental университет

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Узбекистан, геологоразведка, месторождения полезных ископаемых, промышленность, цветные и редкие металлы, золото, медь, полезные ископаемые, научные исследования, геология.	Аннотация:	Статья посвящена изучению истории активизации геологоразведочных работ, проводившихся в Узбекистане в 1946–1960 годах, и открытых в результате этого новых месторождений полезных ископаемых.
------------------------	--	-------------------	---

Ikkinchi jahon urushidan keyingi -yillarda O'zbekiston Markaz tomonidan ishlab chiqilgan va besh -yillik rejalarida aks ettirilgan yo'l-yo'riqlarga amal qilishga majbur bo'lib, ularga mahalliy sharoitda respublika rahbariyati tomonidan ba'zi aniqliklar kiritish imkoniyati ham yo'q edi. Shu tariqa, O'zbekiston hukumati respublika o'z hududidagi boyliklarni erkin tasarruf etish huquqidan ham mahrum bo'ldi. Bunday yondashuvlarning natijasi o'laroq, O'zbekiston Markazning arzon xom ashyo yetkazib beruvchi beminnat bazasiga aylantirilib, bor sanoati ham mana shu xom ashyoni tayyorlash, qadoqlash hamda tashishga xizmat qiluvchi korxonalar tizimidan tashkil topgandi.

Sovet hokimiyati yillarida O'zbekiston xalq xo'jaligini rivojlantirish yo'nalishlari, qabul qilingan rasmiy hujjatlarga muvofiq, respublikaning umumittifoq mehnat taqsimotidagi roli va ahamiyatini oshirish, uning tabiiy boyliklari, mehnat resurslari va mavjud ishlab chiqarish vositalaridan yanada to'laroq foydalanish negizida ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirishni ko'zda tutgan edi.

Bu vazifani amalda yechish, respublika ishlab chiqaruvchi kuchlarini rivojlantirish masalasi, asosan, paxtachilik kompleksiga berilgan ustuvor e'tibor orqali hal etilishi mo'ljallangan bo'lsa, O'zbekiston xo'jaligining ishlab chiqarish ixtisoslashuvi sovet davlati uchun muhim strategik hamda umumittifoq ahamiyatiga ega bo'lgan, boy tabiiy resurslardan foydalanish evaziga barpo etiladigan tarmoqlarning ikkinchi kompleksi – rangli metallurgiya va nodir metallar kompleksi edi.

Sovet hukumati O'zbekistonning ittifoq ixtisoslashuvida xom ashyo bazasi bo'lib qolishiga alohida ahamiyat berib, rangli va nodir metallar konlarini o'zlashtirishni faollik bilan rejalashtirdi. Bu metallarga qiziqish shuning uchun katta ediki, urushdan keyingi -yillarda ittifoq sanoatining yetakchi tarmoqlari: radio-elektronika, mashinasozlik, atom va reaktiv texnika va shu kabilarning jadal rivojlanishi rangli metallarning qo'llanishi bilan bog'liq edi. Ikkinchi tomondan rangli va nodir metallar majmui sovet davlati eksport potensialining alohida moddasini tashkil etardi. O'zbekistonning rangli va nodir metallar yetkazib berish bo'yicha tayanch mintaqa sifatidagi roli urush vaqtidayoq ma'lum bo'lgan edi, o'sha vaqtda respublikada topilgan zaxiralar va bu yerga ko'chirib keltirilgan qayta ishlovchi zavodlarning asbob-uskunolari asosida keyinchalik bir qator rangli metallurgiya zavod va korxonalari (Ingichka

konida volfram rudasini boyitish, Qo'ytoshda volfram-molibden rudasini boyitish, Olmaliqda mis, qo'rg'oshin-rux rudasini boyitish, oltin qazib chiqariladigan xududlarda oltin va boshqa nodir metallarni boyitish korxonalari – Navoiy kon-metallurgiya kombinati va Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Marjonbuloq, Angren oltin-kon fabrikasi va b.) tashkil etildi, ular mudofaa sanoatining qimmatbaho xom ashyoga bo'lgan ehtiyojini qoplashi lozim edi.

Markaziy hukumat rangli va nodir metallarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun yuqorida nomlari keltirilgan yer osti boyliklarini qidirib topish va ularning katta zaxiralarini aniqlash uchun talay ishlarni amalga oshirgan edi. Buning uchun 1940-yilda SSSR Rangli metallurgiya xalq komissarligining "Soyuzredmetrazvedka" tashkiloti qoshida O'rta Osiyo geologiya-qidiruv trest ("Sredazsvetmetrazvedka") tashkil etilgandi.

O'rta Osiyo geologiya-qidiruv trest oldiga asosan O'zbekiston hududidan yer osti boyliklari ichida asosiy o'rinda turuvchi qimmatbaho metallar: mis, qo'rg'oshin, volfram, molibden, simob hamda kaliy, kobalt, surma kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan xom ashyolarni qidirib topish vazifasi yuklatilgan edi. Mazkur vazifani amalga oshirish uchun sovet hukumati mablag'ni ayamadi. Xususan, geologiya-qidiruv ishiga mis konlarini aniqlash uchun 9 yil ichida 16,7 mln rubl mablag' sarflanib, undan Olmaliqda olib borilgan ishlarga 1940-yilda 2,8 mln rubl, 1941–1945-yillarda 2,7 mln rubl ishlatilgan bo'lsa, qolgan 11,2 mln rubl mablag' urushdan keyingi besh yillik davrida Olmaliq va Jezqazgan (Qozog'iston SSR) hududidagi qidiruv ishlariga sarflangandi. Aniqlangan natijalarga ko'ra, Olmaliqdagi misning zaxirasi 1752,0 tonna, oltin zaxirasi esa 220 tonna ekanligi ma'lum bo'ldi.

Volfram ham ittifoq ahamiyatiga ega bo'lgan eng foydali rudalardan biri edi. Shuning uchun uni qidirib topishga qaratilgan e'tibor ham shunga yarasha bo'ldi. Volfram dastlab (1935-yilda) Langar, Qo'ytosh (Qo'ytosh koni 1936-yilda ochilgan bo'lsa-da, u 1941-yildan ittifoq ahamiyatiga molik sanoat obyekti sifatida belgilangan edi), keyinchalik Ingichkadan ham topilib, volfram va molibden rudalari chiqarila boshlangan edi.

Umuman aytganda, "Sredazsvetmetrazvedka" trestining 9 yillik faoliyati davomida O'rta Osiyoda aniqlangan 9 ta volfram konidan 4 tasi O'zbekiston hududida joylashgan edi. Volfram qidirib topish ishlariga 1940-1945-yillarda 15,1 mln rubl ajratilgan bo'lsa, 1946-1948-yillarda 18,4 mln rubl yoki 3,5 marta ko'p mablag' sarflandi. Shunga yarasha respublikadan aniqlangan volfram zaxirasi 1948-yil holatiga ko'ra 13,7 ming tonnani tashkil etgan edi. O'zbekistondagi volfram zaxirasi Sovet Ittifoqida oldingi o'rinlarni egallardi.

Shu tariqa O'zbekistonda bu davrda xomashyo sohasi jadal sur'atlar bilan rivojlandi. Shunday tendensiyani O'zbekiston iqtisodiyotining keyingi rivojlanishi uchun xos bo'lgan quyidagi misollarda ko'rish mumkin: 1947-yilga nisbatan 1949-yilda neftni qazib olish 30 % ga

ko'paydi, ko'mirni qazib olish 2,5 barobarga oshdi, elektr quvvatini ishlab chiqarish 25 % ga, mineral o'g'itlarni ishlab chiqarish 32 % ga, po'lat ishlat chiqarish 41 % ga oshdi. Respublika sanoatining rivojlanishiga xos bo'lgan bunday tendensiya O'zbekiston iqtisodiyotining xomashyo xarakterida ekanligini yanada mustahkam bordi.

Ittifoq hukumati tomonidan rangli va nodir metallarni qidirib topishga ajratilgan mablag'yildan yilga oshirib borildi. Misol uchun SSSR Rangli metallurgiya ministrligini "Sredazsvetmetrazvedka" trestining 1956-yil geologiya-qidiruv ishlari ish rejasiga ajratilgan mablag' 107,1 mln rublni tashkil etgan bo'lsa, shundan O'zbekistonda olib boriladigan geologiya-qidiruv ishlari ish rejasiga ajratilgan mablag' 34,234 mln rublni tashkil qilgandi.

Ittifoq hukumati O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston hududidagi oltin konlarini muntazam o'rganishni dastlab 1932-yildan Butunittifoq oltin qidirish tresti Pomir-Tyanshan oltin qidirish idorasi ("Zolotorazvedka") va O'rta Osiyo oltin qidirish kombinati ("Sredazzoloto") yordamida, keyinchalik 1940-1946-yillarda "Uzbekzolotoredmed" tashkiloti orqali amalga oshirib kelgan. Mazkur-yillarda Olmaliq, Uchqo'rg'on hamda Nurota tog'laridan oltin konlarini qidirish va qazib chiqarish ishlarini olib borilishi natijasida jami 434 kg oltin qazib olingan edi.

1946-yilda Toshkent shahrida mavjud oltin qazib chiqaruvchi korxonalar bazasida O'rta Osiyo oltin qidirish idorasi ("Sredazzoloto") tashkiloti tuzildi. Mazkur tashkilotning asosiy vazifasi O'zbekiston, Qirg'iziston va Janubiy Qozog'iston hududlarida oltin konlarini qidirish ishlarini olib borish va oltin qazib chiqarishdan iborat edi. Shuning uchun "Sredazzoloto" tashkiloti tomonidan 1946-1951-yillar oralig'ida tarqoq holda joylashgan oltin makonlari: Oq-Chop, Temir-Qobiq, Kattaich, Sentob hamda Karmana rayonining Nurota tog' tizmalarida oltin qidirish ishlari jadallik bilan olib borildi.

Ittifoq hukumati Markazning manfaatlari yo'lida ma'dan konlarini yanada tezlik bilan aniqlash va ularni sanoat asosida o'zlashtirishni kuchaytirdi. Bu jihatdan Angren-Olmaliq kon-sanoat tumaniga va Qizilqum sahrosining ajoyib ma'dan mintaqasiga, ayniqsa, katta e'tibor berildi, zero, ular amalda barcha turdagi rangli, noyob metallarni saqlar edi.

1951-yilda O'zbekiston SSR direktiv organlarining qarori bilan O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi Prezidiumi huzirida ishlab chiqarish kuchlarini o'rganish Kengashi (SOPS) tashkil etildi. Bu kengashning asosiy vazifasi O'zbekistonning boy tabiiy va mehnat resurslarining umumxo'jalik aylanmasidagi ishtiroki, O'rta Osiyodagi mehnat taqsimotidagi o'rning ortishi va ittifoqning sharqiy rayonlari iqtisodiy salohiyatini oshirishdagi rolini kompleks o'rganishdan iborat edi. Kengash tashkil etilgan paytda uning tarkibiga respublikada ko'zga ko'ringan davlat va fan arboblardan: O'zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi akademiklari: H.M.Abdullayev, YE.P.Korovin, A.S.Sodiqov va I.M.Mo'minovlar; Davlat reja qo'mitasi raisi S.K.Ziyodullayev;

ministrlar – F.SH.Shamsutdinov, B.Muqumboev, I.Isamuhammedov, R.Nosirov va boshqa ko‘plab davlat muassasa-tashkilotlari rahbarlari hamda sohaga oid mutaxassislar kiritilgan edi. Mazkur kengash faoliyati davomida 24 ta xalq xo‘jaligi muammolarini o‘rganib, unga bag‘ishlangan 60 dan ortiq monografiyalar chop ettirgan va 18 ta ilmiy-ishlab chiqarish konferensiyalarini o‘tkazgan. Alohida yirik dasturlar ustidagi tadqiqotlarni olib borishda, uning sifatini oshirish maqsadida ba‘zan 60-70 muassasa hamda 100-150 nafargacha ijrochi mutaxassislar jalb etilgan.

Umuman aytganda, Kengash xulosalari respublikadagi ishlab chiqarish kuchlarini joylashtarish, sanoat korxonalarining qurilishi va yangi konlarni ochilishiga oid hukumat tomonidan qabul qilinadigan qarorlar va besh-yillik rejalarni tuzishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.

1951-yilda O‘zbekiston hukumati tomonidan O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi qoshida ishlab chiqarish kuchlarini o‘rganish bo‘yicha kengash tuzildi. Kengashga O‘zbekiston SSR davlat reja qo‘mitasi bilan hamkorlikda xalq xo‘jaligining muhim masalalarini o‘rganish, tegishli rayonlarning kompleks muammolari yuzasidan tadqiqot ishlarini olib borish vazifasi topshirildi. Bu topshiriqdan kelib chiqib belgilangan vazifalar O‘zbekistonning umumittifoq fondiga qo‘shayotgan hissasini oshirishga, urushdan keyingi iqtisodni rivojlantirishga ko‘mak berishi lozim edi. O‘sha vaqtlarda Mirzacho‘lni, Farg‘ona vodiysini, Angren-Olmaliq tog‘-kon sanoati rayonini, Buxoro-Navoiy, Amudaryoning quyi oqimidagi va boshqa rayonlarni o‘zlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishi kerak edi.

Tadqiqot ishida respublika Fanlar akademiyasining deyarli barcha ilmiy-tadqiqot institutlari, ko‘plab idoralarga qarashli muassasalar, loyihalash-qidirish muassasalari, oliy o‘quv yurtlarining kafedralari, Davlat reja qo‘mitasi va boshqa tashkilotlaridan 35 nafar mutaxassislar ishtirok etdi. Tadqiqot ishi natijasida O‘zbekiston tog‘lari va tog‘ etaklarida, cho‘llari va yarim cho‘llarining iqtisodiy salohiyati hamda ularni ishlatish yo‘llari tahlil qilindi. Tadqiqotlarga ko‘ra tog‘-kon sanoati korxonalarini mavjud foydali qazilmalar bazasida rivojlantirish, shu orqali yo‘llar, elektr uzatish liniyalari, suv bilan ta‘minlash tizimlari, qurilish bazalariga ega bo‘lgan korxonalardan yana kamida 15 tasini qurish mumkin degan xulosaga kelgan edilar.

XX asrning 50-yillarida rangli metallurgiya sohasida asosan kon qazish sanoati mavjud bo‘lib, bu hol strategik jihatdan muhim qimmatbaho mahsulotlarni Markazga keng ko‘lamda tashib ketish maqsadiga to‘la mos kelmas, sohada jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarardi. Bu jihatdan sovet davlatiga ma‘danlarni joyida birlamchi eritib, tayyor metallga aylantirishga qodir sanoat ishlab chiqarishini O‘zbekistonning o‘zida yo‘lga qo‘yish foydaliroq edi. Bunda o‘lkadagi arzon ishchi kuchidan foydalanish, ishlab chiqarishdan hosil bo‘ladigan zararli chiqindilarni shu

yerning o'zida qoldirish masalalari ham o'ylangan edi. Shu sababli 60-yillardan O'zbekistonda bu tarmoq konchilik tarmog'idan kon-saralash, kon-metallurgiya sanoati tarmog'iga aylana boshladi. Buning natijasida respublikada Qalmoqqir, Oltintopgan va Qo'rg'oshinkon konlari negizida Olmaliq qo'rg'oshin-rux va mis kon-metallurgiya kombinati; Ingichka va Qo'ytosh konchilik korxonalari negizida O'zbekiston qiyin eriydigan va o'tga chidamli metallar kombinati va boshqa shu kabi ulkan korxonalar vujudga keltirildi. Bunday ulkan ishlar amalga oshirilishi uchun respublikadagi rangli metallurgiya korxonalarining asosiy fondlari 1958-1960-yillarda oldingi-yillarga nisbatan uch barobardan ko'proq oshirilgan edi.

1954-yilda Qalmoqqir mis konida ruda qazib chiqarishning boshlanishi munosabati bilan Olmaliqda mis-molibden kombinati qurish to'g'risida hukumat qarori qabul qilindi. 1954-yilda Qalmoqqir konida mis boyitish fabrikasi qurila boshlandi, keyin esa mis zavodi qurildi. 1958-yildan e'tiboran bu yerdan mis olina boshlandi.

1953-yildan boshlab Olmaliq rayonidagi Qo'rg'oshinkon konida qo'rg'oshin-rux rudasi chiqarila boshlangan bo'lsa, 1955-yildan boshlab esa, u Oltintopgan konidan ham olina boshlandi. Qalmoqqir, Qo'rg'oshinkon va boshqa rangli metall konlarini o'zlashtirish bazasida O'zbekiston rangli metallurgiyasining markazi – Olmaliq shahri vujudga keldi.

Bularning barchasi respublikada elektrolitik, rafinatsiyalashgan va katod mis, qo'rg'oshin konsentratlari, volfram angidratlari, molibden simlari, qattiq qotishmalar va boshqa nodir metallar ishlab chiqarishni ancha ko'paytirishga imkon yaratgan edi.

Xulosa qilib aytganda, markaziy hukumat tomonidan belgilangan reja asosida rangli va nodir metallarga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun O'zbekistonda yer osti boyliklarini qidirib topish va ularning katta zaxiralarini aniqlash uchun bir qator geologiya-qidiruv ishlari olib borildi. Bu jarayonda respublikadagi ilmiy-tadqiqot institutlar va boshqa bir qator tegishli mutasaddi tashkilotlarning xodimlari viloyatlarda o'z faolitini olib borishdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. – Т., 2000. – Б. 520.
2. Хайдаров И. Ўзбекистон саноатининг Совет Иттифоқи ягона Халқ хўжалигидаги ўрни. – Т., 2019. – Б.119.
3. Anarkulov S. Toshkent vohasi sanoat shaharlarida ijtimoiy-madaniy jarayonlar. – Т., 2023. – В.47.
4. Ўзбекистон ССР Фанлар Академаяси томонидан ишлаб чиқариш кучларини ўрганиш 1945 йилдан бошланган.

5. Зиядуллаев С., Бедринцев К.Н., Моенко В.Я. Совет по изучению производительных сил Узбекистане. – Т.: Фан, 1981. – Б.9.
6. Бедринцев К., Мошенко В. Совет по изучению производительных сил Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1981. – С.3.
7. Бедринцев К., Мирзаев А. Ўзбекистонликларнинг келажак авлодлари қарда яшайди // Ўзбекистон коммунисти. 1988 йил 12 декабрь. – 10 б.
8. Файзиев М., Родимкин Е. Ишлаб чиқарувчи кучларни ривожлантириш ва жойлаштириш. – Т.: Ўзбекистон, 1967. – Б. 29.
9. Гертман Л.Г, Климачев Ф, Степанов Б.А, Цветков К.С. Цветная металлургия Узбекистана. – Т.: УЗИНТИ, 1967. – С. 11.
10. “Экономика и Жизнь”. 1967, №11. – С. 27.
11. Аҳмедов Э., Фатахов Е.Н. Битмас-туганмас бойликлар ўлкаси. – Т., 1967. – Б. 13.